



## **TERINING SURUNKAL YIRINGLI-YALLIG‘LANISH KASALLIKLARIDA MIKROFLORA VA ANTIBIOTIKLARGA SEZGIRLIGI**

**Shayqulov Hamza Shodievich.**

Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya  
kafedrasи

**Isokulova Muhabbat Mardanova**

DKTF klinik-laborator diagnostika kursi  
Samarqand davlat tibbiyot universiteti.  
Samarqand, O‘zbekiston.

**Annotatsiya.** Teridagi yiringli yallig‘lanish kasalliklari odamlardagi patologiyalar keng tarqalgan bo‘lib, undagi qo‘zg‘atuvchilarning turlari va bu qo‘zg‘atuvchilarni ko‘p qo‘llanilayotgan antibiotiklarga munosabatini o‘rganish amaliy tibbiyotda, xuxusan jarohlikda dolzarbdir. Ushbu ishda 621 nafar teri yiringli yallig‘lanishlari bilan kasallangan bemorlardan ajratilgan qo‘zg‘atuvchilarning antibiotiklarga munosabati keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Yiring, yallig‘lanish, antibiotik, *Staphylococcus*, *Streptococcus*, *Escherichia*, *Saccharomyces*, akne, ekzema, pyoderma, follikulit, furunkul, streptodermaya.

**Kirish.** Bugungi kunda sayyoramizda qariyib 100 000 turdagи bakteriyalar yashashi ma’lum. Mutaxassislarining maxsus hisob-kitoblarga ko‘ra, bir kishining tanasida doimiy ravishda  $10^{16}$ - $10^{17}$  miqdordagi turlicha mikroorganizmlarning hujayralari yashaydi va sayyoramizning butun aholisida  $10^{24}$  dan ortiq bakteriyalar yashashi haqida ishonchli ma’lumotlar bor. Odam tanasida taxminan  $10^{14}$  hujayra mavjudligini inobatga olsak, unda barcha hujayralarning atigi 43 foizi aslida o‘zimizning hujayralarimiz – odam hujayralari qolgan katta qismi esa turli – tuman mikroorganizmlar – mikroskopik kolonizatorlardir.

Amaliy tibbiyotda, xususan jarohlik amaliyotida asosan makroorganizm va shartli - patogen (opportunistik) mikrofloralarning o‘zaro munosabatidan kelib chiqadigan infeksiyalar eng keng tarqalgan [5].

Jarohlik infeksiyalarini quyidagi bir necha xildagi mezonlarga ko‘ra tasniflanadi:

- kasallik qo‘zg‘atuvchisining turi;
- infeksiya uchog‘idagi patogenlarning turlari miqdori;
- klinik rivojlanishi (kechishi);
- organizmda tarqalish darajasi (mahalliy, umumiy);
- joylashgan joyi.



Jarrohlik infeksiyalari tarkibidagi eng keng tarqalgan qo‘zg‘atuvchilar quyidagi mikroorganizmlarni o‘z ichiga oladi [7,10]:

- gramm musbat (+) aerob va fakultativ anaerob kokklar: *Staphylococcus*, *Streptococcus*, *Enterococcus*;
- gramm manfiy (-) fakultativ anaerob tayoqchalar: *Enterobactericeae* oilasining bakteriyalari: *Escherichia*, *Klebsiella*, *Proteus*, *Enterobacter*, *Citrobacter*
- fermentlamaydigan gramm manfiy (-) aerob tayoqchalar va kokkobakteriyalar: *Pseudomonas*, *Acinetobacter*;
- gramm musbat (+) aerob va fakultativ anaerob tayoqchalar: *Lactobacillus*;
- gramm manfiy (-) anaerob bakteriyalar: *Bacteroides*, *Fusobacterium*, *Veillonella*;
- gramm musbat (+) anaerob kokklar: *Peptostreptococcus*, *Peptococcus*;
- gramm musbat (+) anaerob bakteriyalar: *Clostridium*.

Amaliy tibbiyotda turlicha ta’sir doirasiga va ta’sir mexanizmiga ega antibiotiklarning keng qo‘llanilishi tufayli jarrohlik infeksiyasining asosiy qo‘zg‘atuvchisi ko‘pchilik antibakterial vositalarga chidamliligi yanada ortib bormoqda [2]. Bu holat jarrohlik infeksiyalari muammosini yechimini topishga, bemorlarni antibiotiklar yordamida samarali davolash uchun turli mutaxassisliklar - jarrohlar, klinik mikrobiologiyasi mutaxassislari, kimyoterapiya, epidemiologiya va boshqa mutaxassislarning o‘zaro hamkorliikda yanada chuqurroq o‘rganishni, yangi usullarini izlashga va mavjud usullarni takomillashtirish zarurligini talab etadi [1,11].

Teridagi yiringli yallig‘lanish kasallikkleri odamlardagi patologiyalar jihatidan muhim o‘rin tutadi va ko‘pincha uzoq davom etuvchi, cho‘zilgan shakldagi infeksiyalar hisoblanadi. Shu munosabat bilan, ularning mikrobiologik etiologiyasi va patogenlarning antibiotiklarga sezuvchanligini aniqlash zarurati dolzarb bo‘lib qoladi.

**Tadqiqotning maqsadi.** Teridagi yiringli yallig‘lanishlarga sababchi bo‘luvchi qo‘zg‘atuvchilarning turlarini va ularning antibiotiklarga sezuvchanligini aniqlash

**Materiallar va usullar.** Buning uchun 2023 yil bahor va yoz mavsumlarida har xil teri yiringli yallig‘lanishlari bilan jarrohlik bo‘limidagi davolanayotgan 621 nafar bemorlar kuzatildi.

Tekshirilayotgan ashyo - yiring qonli, go‘sht-peptonli agarga Drigalskiy usulida ekilib o‘stirildi va sof kulturalaralar ajratildi. Ajratilgan bakteriyalarning 10




turdagi antibiotiklarga (gentamitsin, eritromitsin, xloramfenikol, polimiksin, tetratsiklin, sefazolin, oksatsillin, benzilpenitsillin, doksitsiklin va ampitsillin) nisbatan sezgirligi standart qog'oz disklar yordamida disk-diffuziya usulida aniqlandi.

**Tadqiqot natijalari.** Olingan natijalarda bahor va yoz mavsumlarida teri yiringli yallig'lanishlari bilan murojat etgan bemorlarning kasalliklar turi bo'yicha tahlilida 314 nafari surunkali absesslanuvchi akne, 111 nafari surunkali, takrorlanuvchi (ST) bakterial ekzema, 105 nafari surunkali, takrorlanuvchi (ST) pyoderma, 26 nafari surunkali, takrorlanuvchi follikulit, 22 nafari surunkali, takrorlanuvchi (ST) furunkuloz, 20 nafari Dyuring dermatiti va 12 nafardan streptodermaya, 11 nafar ekssudativ ekzema bilan kasallangan bemorlar ekanligi kuzatildi.

## 1-rasm

### Terining yiringli yallig'lanishlarida kasallik turlarining hissasi (%)




Teridagi yiringli yallig'lanishlarni chaqirgan qo'zg'atuvchilarining sof kulturalarini ajratib identifikasiya qilinganach ularning turlari bo'yicha tahlil qilinganda, Staphylococcus, Streptococcus, Escherichia, Saccharomyces va boshqa turdag'i qo'zg'atuvchilar yiringli yallig'lanish rivojlangan uchog'laridan topildi, ammo Staphylococcus dominant bo'lib chiqdi, ular 361 (58,1%) bemorda monokultura tarzda va boshqa 150 (24,2%) bemorda boshqa mikroorganizmlar bilan assotsiatsiyada uchradi. Terida surunkali yiringli yallig'lanishlar bilan kasallangan jami 511 nafar bemorda (82,3%) etiopatogenezda patogenlik belgilari yaqqol namoyon bo'lgan, va ko'plab antibiotiklarga chidamliligi ortgan stafilokokklar asosiy qo'zg'atuvchi ekanligi aniqlandi.

## 2-rasm




**Teri yiringli yallig'lanishlaridan ajratilgan qo'zg'atuvchilarining turlari  
hissasi (%)**



O'r ganilgan antibiotiklardan yiringning umumiy mikroflorasiga samaraliroq ta'sir ko'rsatganlari: gentamitsin, oksatsillin va dok siksiklin kabi antibiotiklar bo'lib, mos ravishda kuzatuvdag'i bemorlarning 38 nafari (61%), 36 nafari (60%) va 31 nafari (50%) da yaxshi natija yuqori sezgirlikni ko'rsatdi. Qolgan 7 turdag'i antibiotiklarning aksariyatiga nisbatan yiringli mikroflora chidamlilik nomoyon etdi. Ulardan faqat eritromitsin va tetratsiklin 21 va 18% hollarda antibakterial faolligini saqlab qolganligi kuzatildi. 5 turdag'i antibiotiklarga nisbatan bunday faoliy 8-12% hollardagina qayd etildi.

**3-rasm**

**Teri yiringli yallig'lanishlaridan ajratilgan qo'zg'atuvchilarining  
antibiotiklarga munosabati (%)**





**Xulosa.** Shunday qilib, olingan natijalarda bahor va yoz mavsumlarida teri yiringli yallig‘lanishlari bilan murojat etgan bemorlarning kasallik turlari, patogen bakteriyalarning ajralishi va ularni antibiotiklarga munosabati bo‘yicha tahlilida quyidagilar aniqlandi:

1. Bahor va yoz mavsumlarida teri yiringli yallig‘lanishlari bilan murojat etgan bemorlarning katta qismini surunkali absesslanuvchi akne, ST bakterial ekzema, ST pyoderma kasalliklari tashkil etdi;
2. Teridagi yiringli yallig‘lanishlarda eng ko‘p ajraluvchi qo‘zg‘atuvchilar Staphylococcus, Streptococcus va, Escherichia oilasiga mansub bakteriyalar ekanligi kuzatildi;

Teri yiringli yallig‘lanishlarida uchraydigan patogen bakteriyalarga gentamitsin, oksatsillin va doksitsiklin kabi antibiotiklar samarali ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi.



**Adabiyotlar.**

1. Абророва Н. А., Жамалова Ф. А. КОЛИЦИНОГЕННОСТЬ ГЕМОЛИТИЧЕСКИХ И НЕГЕМОЛИТИЧЕСКИХ ЭШЕРИХИЙ, ВЫДЕЛЕННЫХ У ДЕТЕЙ, БОЛЬНЫХ ОКЗ, И ЗДОРОВЫХ //FORCIPE. – 2021. – Т. 4. – №. S1. – С. 522-522.
2. Мавлюдова Х., Шайқулов Х. РОЛЬ ЭНТЕРОПАТОГЕННЫЕ ЭШЕРИХИЙ ПРИ ДИАРЕИ У ДЕТЕЙ И ЭФФЕКТ ПРОБИОТИКОТЕРАПИИ ПРИ ПРИМЕНЕНИЕ КОЛИБАКТЕРИНА И ЛАКТОБАКТЕРИНА В СРАВНИТЕЛЬНОМ АСПЕКТЕ //InterConf. – 2022.
3. Одилова Г. М., Шайқулов Х. Ш., Хусанов Э. У. Ультраструктура слизистой толстой кишки у больных острой дизентерией //Астана медициналық журналы. – 2022. – №. S1. – С. 62-68.
4. Расулова М. Р., Юлаева И. А., Шодиев Ж. Х. СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ДИАГНОСТИКИ ПЕРЕЛОМОВ КОСТЕЙ НОСА //Talqin va tadqiqtar ilmiy-uslubiy jurnal. – 2023. – Т. 1. – №. 17. – С. 225-235.
5. Расулова М., Индиаминов С. Судебно-медицинские аспекты повреждений гортани при тупой механической травме //Журнал проблемы биологии и медицины. – 2019. – №. 1 (107). – С. 159-162.
6. Расулова М., Юлаева И., Шодиев Ж. ПЕРЕЛОМЫ КОСТЕЙ НОСА В ПРАКТИКЕ СУДЕБНО-МЕДИЦИНСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ //Евразийский журнал медицинских и естественных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 1 Part 1. – С. 78-84.
7. Ризаев Ж. А. и др. ЭШЕРИХИОЗ БИЛАН КАСАЛЛАНГАН БОЛАЛАРНИ ДАВОЛАШДА АНТИБИОТИКЛАР ҚЎЛЛАНИЛИШИНинг ТАШКИЛИЙ-УСЛУБИЙ АСОСЛАРИ //Экономика и социум. – 2022. – №. 9 (100). – С. 561-576.
8. Шайқулов, Х. Ш. Бактериоциногенная активность антибиотикоустойчивых штаммов стафилококков, выделенных в Самарканде / Х. Ш. Шайқулов, М. М. Исокулова // Перспективы развития науки в современном мире : Сборник научных статей по материалам X Международной научно-практической конференции, Уфа, 13 декабря 2022 года. Том Часть 3. – Уфа: Общество с ограниченной ответственностью "Научно-издательский центр "Вестник науки", 2022. – С. 110-116. – EDN YFFDFX.
9. Шайқулов Ҳамза Шодиевич, Нарзиев Джавохир Убайдуллаевич БОЛАЛАР ИЧАК ЭШЕРИХИОЗИНИ ДАВОЛАШДА АНТИБИОТИКОРЕЗИСТЕНТ ЛАКТОБАКТЕРИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШИНГ САМАРАДОРЛИГИ // Talqin va tadqiqtar ilmiy-uslubiy jurnal. 2023. №17. URL:



<https://cyberleninka.ru/article/n/bolalar-ichak-esherihiozini-davolashda-antibiotikorezistent-laktobakteriyalardan-foydalanishning-samaradorligi> (дата обращения: 23.09.2023).

10. Шайқулов Ҳамза Шодиевич, Эрматов Низом Жумакулович, Расулова Мухсина Розиковна, Шодиев Жавохир Хамзаевич, & Хожаназарова Саулехан Жубатировна. (2023). MICROSOFT EXCEL ЭЛЕКТРОН ЖАДВАЛИДАН ФОЙДАЛАНИБ ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИНИ СТАТИСТИК ҲИСОБЛАШ. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 1(4), 67–75. Retrieved from <https://uzresearchers.com/index.php/ijrs/article/view/691>
11. Эрматов, Низом Жумакулович. "Абдулхаков Ихтиёр Умарович СОЦИАЛЬНО-ГИГИЕНИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА УРОВНЯ ЗАБОЛЕВАЕМОСТИ СРЕДИ РАЗЛИЧНЫХ СЛОЕВ НАСЕЛЕНИЯ ПО МАТЕРИАЛАМ ОБРАЩЕНИЙ И УГЛУБЛЕННЫХ МЕДИЦИНСКИХ ОСМОТРОВ." Биология и интегративная медицина 6 (2021): 53.
12. Ermatov N. J., Abdulkhakov I. U. Influence of diet and other risk factors on endocrine system diseases //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – Т. 10. – №. 8. – С. 182-189.
13. Sh S. H., Mamarasulova N. I. O 'TKIR DIAREYALARDA ESHERIXIYALARING AJRALISHI. – 2023.
14. Sh S. H., Mamarasulova N. I., Yusupov M. I. HOZIRGI ZAMON TALABALARINING BILIM OLISHIDA ETIK-ESTETIK CHALG'ITUVCHI OMILLAR //PEDAGOGS jurnalı. – 2022. – Т. 9. – №. 2. – С. 90-95.
15. Sh S. K. et al. OF PSEUDOMONAS AERUGINOSA IN INFECTIOUS PATHOLOGY OF HUMANS, ANIMALS AND BIRDS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 3. – С. 237-240.
16. Sh S. X., Sa'dinov P. O. Rol gemoliticheskix esherixiy v strukture ostrvykh kishechnykh infeksiy u detey i effektivnost primeneniya probiotikov v ix lechenii. – 2014.
17. Sh, Shayqulov H., and N. I. Mamarasulova. "ANTIBIOTIKLAR VA ANTIBIOTIKOREZISTENT LAKTOBAKTERIYALARINI BIRGALIKDA BOLALAR DAGI ESHERIXIOZ KASALLIKLARNI DAVOLASHDA QO 'LLANISHI." (2023).